

Date: 3rd November-2025

**O'QUV JARAYONIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK
MEXANIZMLARI**

Millat Umidi Universiteti

Fakultet: Biznes boshqaruvi

4 kurs talabasi: **Inogamov Abdulloh**

BA-401

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonida o'quvchi motivatsiyasini shakllantirish masalasi o'rganildi. Motivatsiya tushunchasining mazmuni, ichki va tashqi omillar ta'siri hamda o'qituvchi talaba o'zaro muloqotining roliga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot Deki va Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi va Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi asosida olib borildi. Har ikki nazariya ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishini ichki psixologik ehtiyojlar va ijtimoiy muhit omillari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali ta'lim jarayoni o'quvchining mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, qobiliyatini qadrlash va ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratish orqali motivatsiyani sezilarli darajada oshirishi mumkinligi aniqlandi.

KIRISH

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining markazida esa o'quvchi shaxsining faolligi, tashabbuskorligi va bilimga intilishi turadi. Motivatsiyasi kuchli o'quvchi mustaqil o'rganadi, tahlil qiladi, izlanadi va natija uchun javobgarlikni his etadi. Aksincha, motivatsiyasi past bo'lgan o'quvchi o'qishni majburiyat sifatida qabul qiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida motivatsiyaning psixologik asoslarini chuqur o'rganish, uni oshirish yo'llarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Ilmiy manbalarda motivatsiya ikki asosiy ko'rinishda izohlanadi:

Ichki motivatsiya – o'qishning o'zi zavq bag'ishlashi shuning uchun barqaror hisoblanadi

Tashqi motivatsiya – baho, mukofot, tanbeh omillariga asoslanadi shuning uchun tez so'nadi

Ilmiy tadqiqotchilar (Maslow, Bandura, Vigotskiy, Deki va Ryan) motivatsiyaning shakllanishida ijtimoiy muhit, shaxsiy maqsadlar, qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi omillarini asosiy deb hisoblaydilar.

Motivatsiyaning psixologik mohiyati

Motivatsiya — bu o'quvchini o'rganishga ichki yoki tashqi jihatdan undovchi psixologik jarayon. Uning shakllanishi: ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, shaxsiy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan.

Deki va Ryanning “o'z-o'zini belgilash” nazariyasi

Bu nazariya motivatsiyaning uchta asosiy psixologik ehtiyojga tayangan holda rivojlanishini ta'kidlaydi:



Date: 3rd November-2025

Avtonomiya (mustaqillik) – talaba tanlov qila olishi kerak va o'qituvchining vazifasi tanlov berish, fikrini hurmat qilish

Kompetensiya (qobiliyatni his qilish) – talaba o'zi uddalay olishini anglashi va o'qituvchining vazifasi rag'batlantirish, bosqichma-bosqich murakkablashtirish

Ijtimoiy aloqa (qo'llab-quvvatlanish) – talaba guruhga tegishlilik tuyg'usini his qilishi va o'qituvchining vazifasi iliq muhit yaratishi jamoaviy topshiriqlar berishi

Nazariyaning ta'limdagi mohiyati:

Majbur qilish emas, shart-sharoit yaratish motivatsiyani oshiradi.

Vigotskiyning Sotsiokultural nazariyasi

Vigotskiy ta'limning mohiyatini ijtimoiy hamkorlikda bilim olish deb talqin qiladi. Uning asosiy tushunchasi:

Yaqin Taraqqiyot Zonasi — talaba o'zi bajara olmaydigan, lekin yo'l-yo'riq berilganda bajara oladigan bosqich. Ya'ni bu bosqichda talaba o'rganishga tayyor, o'qituvchining vazifasi esa yo'naltirish, qo'llab quvvatlash va natijada muvaffaqiyat hissi – ichki motivatsiyaning kuchayishi ro'y beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Mustaqillik berilgan talaba o'zi izlanadi – ichki motivatsiya kuchayadi.

O'qituvchi tomonidan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilsa – o'quvchi o'zini qobiliyatli his qiladi.

Jamoaviy loyihalar va muloqot jarayonlari – bilimni mustahkamlaydi.

Motivatsiyani kuchaytirish uchun eng samarali yondashuv:

Talabaga erkinlik + qo'llab-quvvatlash + jamoaviy o'qish muhiti yaratish.

XULOSA

Ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish — bu shunchaki baholash yoki talab qo'yish emas. Bu — o'quvchining shaxsiy qadrini his qildirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ijtimoiy hamkorlik muhiti yaratishdir. Deki, Ryan va Vigotskiy nazariyalari ta'limning insoniy, psixologik va ijtimoiy tabiatini ochib beradi. Ularni amaliy qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

<https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/5978>

<https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-motivatsiyaning-psixologik-asoslari-va-uning-samaradorligini-oshirish-yo-llari>

https://selfdeterminationtheory.org/SDT/documents/2000_RyanDeci_SDT.pdf

<https://cyberleninka.ru/article/n/l-s-vygotskiy-i-metodologiya-psihologii>